

**“Ijro.gov.uz” tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasida ijro intizomi holati to’g’risida ma’lumot**

“Ijro.gov.uz” tizimida Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasiga kelib tushgan O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari bo’yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida **1427 ta** topshiriq ijrosini ta’minlash belgilangan.

Joriy yilning 23-iyul holatiga ko’ra, mazkur topshiriqlardan **1411 tasi (yoki 98,9 foizi)**ning ijrosi ta’minlandi.

Qolgan **16 ta** topshiriq ijrosi bo’yicha ishlar davom ettirilmoqda. Qolgan topshiriqlarning barchasi **belgilangan tartibda nazoratdan yechilgan**.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashda ijro intizomini buzgan tarkibiy bo’linmalar va tizim tashkilotlarining mas’ul rahbar va xodimlariga nisbatan **intizomiy chora tadbirlari** ko’rib borilmoqda. Ijro intizomi talablarini buzgan xodimlarga nisbatan intizomiy choralarning boshqa shakllari bilan bir qatorda **ularning ustama ish haqlariga nisbatan pasaytirilgan koeffitsientlar** muntazam qo’llanilib kelinmoqda.

Ijro intizomini mustahkamlash masalalari qo’mita rahbariyati ishtirokida **haftada 2 marta** (*dushanba, juma kunlari*) o’tkaziladigan yig’ilishlarda muhokama qilib borilmoqda.

Bugungi kunda “Ijro.gov.uz” tizimida qo’mita tomonidan **iyul oyi yakunigacha** bajarilishi lozim bo’lgan topshiriqlar ijrosining borishi qo’mita markaziy apparati tarkibiy bo’linmalari boshliqlari va tizim tashkilotlari rahbarlari hisobotlarining muhokamalari natijalari bo’yicha belgilab olinadigan va topshiriqlar ijrosini jadallashtirishga yo’naltirilgan chora-tadbirlar asosida **kundalik nazorat rejimida** davom ettirilmoqda.